

“TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI”

“ФОРМИРОВАНИЕ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ”

“THE FORMATION OF THE JADID MOVEMENT IN TURKESTAN”

Sirojiddinova Ma'muraxon Sharofiddinovna

Qo'qon DU Gumanitar va tillar fakulteti tyutori

Shokirova Mavluda Shavkatjon qizi

Qo'qon DU Gumanitar va tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

+99890-308-75-27

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari, asosiy g'oya va maqsadlari, uning Turkiston ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni hamda bugungi yoshlar uchun ibratli jihatlar yoritiladi. Harakatning bosqichlari, namoyandalari va mustaqillik davridagi qayta tiklanishi haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация. В статье освещаются исторические корни джадидского движения, его основные идеи и цели, а также его роль в общественно-духовной жизни Туркестана. Рассказывается об актуальности наследия джадидов для современной молодежи. Также представлена информация об этапах развития движения, его представителях и возрождении в период независимости.

Annotation. The article highlights the historical roots of the Jadid movement, its core ideas and objectives, and its role in the socio-spiritual life of Turkestan. It also emphasizes the relevance of the Jadids' legacy for today's youth. The article provides information about the movement's stages, its prominent figures, and its revival during the independence period.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Turkiston, jadidchilik g'oyalari, panturkizm, panislamizm.

Ключевые слова: Джадидизм, Туркестан, идеи джадидизма, пантюркизм, панисламизм.

Keywords: Jadidism, Turkistan, ideas of Jadidism, Pan-Turkism, Pan-Islamism.

“Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur⁷⁸”

Shavkat Mirziyoyev

⁷⁸ Prezident Sh.M.Mirziyoyev Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil, 22-dekabrdagi yig'ilishidagi nutqidan

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lidan dadil bormoqda. Bu yo‘lda yosh avlod – zamonaviy bilim va tafakkur bilan qurollangan, milliy g‘urur va tarixiy xotiraga ega bo‘lgan yoshlarga katta ishonch bildirilmoqda. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida jadidlar harakatining tarixiy tajribasi, ularning ilg‘or g‘oyalari, xalqni uyg‘otishga qaratilgan fidokorona faoliyati katta ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

Jadidchilik harakati – bu faqat o‘tmishdagi tarixiy hodisa emas, balki bugungi yoshlar uchun ham ibrat maktabidir. Jadidlar yoshlarni yangi bilimlarga, tafakkur erkinligiga, ijtimoiy faollikka undaganlar. Yangi O‘zbekiston sharoitida ham yoshlarning jamiyati dagi faolligi, ta’limga bo‘lgan ishtiyoqi va milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi izlanishlari jadidlarning maqsad va orzulari bilan uyg‘unlashmoqda.

Jadidlar harakati — bu Turkiston zaminida tasodifan vujudga kelgan bir to‘lqin emas, balki chuqur tarixiy ildizlardan suv ichgan, asrlik ruhiy-ma’naviy asoslarga tayanib shakllangan va o‘z zamonasining dolzarb ijtimoiy hamda siyosiy masalalariga javob topishga intilgan taraqqiyparvar oqimdir. Bu harakat, bir tomondan, islom dinining asl mohiyatidagi ma’rifatparvarlik va adolat g‘oyalari suyanar ekan, boshqa tomondan esa zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlarini milliy ruh ila yo‘g‘rilgan holda xalq orasida yoyishni o‘ziga maqsad etgan edi. Jadidlar uchun eng oliy burch — milliy o‘zlikni, qadriyatni asrab-avaylagan holda, zamon bilan hamnafas, tafakkurda erkin, ilmda yetuk insonni kamolga yetkazish edi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo‘q. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlana boshladi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy ma’rifiy harakatning, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovush usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi, ayni chog‘da turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga o‘rgatilishi, milliy-ma’rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi “Ittihodiy va taraqqiy”, “Yosh turklar” harakatining ta’siri katta bo‘ldi. Jadidchilik harakatlari dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiyning rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U 1884 yil mart oyida Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va u “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi bo‘lgan. Yangicha usul – “usuli jadid”-savtiya

(tovush) usuli bilan 12 bola o‘qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. Ismoilbek 1893 -yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’y – harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga “Muzaffariya” degan nom berilgan. Jadidlar xayriya jamg‘armalari orqali iste’dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborish, usuli jadid maktablarini har tomonlama qo‘llab – quvvatlash, bu maktablar uchun o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratish, xorijdagi talabalarga moddiy yordam ko‘rsatish ishlari bilan shug‘ullangan⁷⁹.

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi — bu tasodifiy voqea emas, balki o‘z zamonining mavjud ijtimoiy-siyosiy haqiqatidan norozilik, qoniqmaslik tuyg‘usidan tug‘ilgan mafkuraviy uyg‘onish edi. Arab tilidan olingan va “yangilik”, “yangicha yo‘l” ma‘nosini anglatuvchi “jaded” lafzi asta-sekin ularning harakatini belgilovchi ijtimoiy-ruhiy atamaga aylana bordi. Shu tariqa Misr, Usmonli Turkiyasi, Kavkaz, Turkiston va boshqa musulmon diyori bo‘lmish o‘lkalar zahirida jadidlar xalqni qoloqlikdan qutqarish, millatni uyg‘otish, ona yurtlarini ozod va mustaqil holatda ko‘rish orzusini o‘zlarining muqaddas burchi deb bildilar.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Tavallo (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Isxoqxon to‘ra Ibrat, Hamza, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) muhim rol o‘ynadi. Ushbu siymolarning sa’y harakati bilan jadidchilik harakati taraqqiy etgan⁸⁰.

Bugungi kunda yurtimiz tarixshunoslari jadidchilik harakatining taraqqiyot bosqichlarini tahlil etar ekan, ularni uch asosiy davrga ajratmoqdalar. Ulardan birinchisi — XIX asr oxiri va 1915 yilgacha bo‘lgan ma‘rifatchilik bosqichi bo‘lib, bu davrda jadidlar asosan xalqni ilm-ma‘rifat bilan uyg‘otishga, maktab ta‘limini isloh qilishga e‘tibor qaratganlar. Ikkinchi bosqich esa 1915 yildan 1918 yil fevraligacha davom etgan bo‘lib, bu davr muxtoriyatchilik g‘oyalarining avj olishi, siyosiy faollikning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Uchinchisi esa 1918 yil fevralidan 1920-yillar oxirigacha bo‘lgan sovetlar davridagi faoliyat bo‘lib, bu bosqichda jadidlar o‘z g‘oya va maqsadlarini yangi siyosiy sharoitda davom ettirishga urinib ko‘rganlar.

⁷⁹ “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019. B-305.

⁸⁰ “O‘zbekiston Tarixi”- R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019. B-309.

Jadidlarning xalq ma'rifatini rivojlantirish yo'lida belgilagan dasturi ham aniq yo'nalishlarga ega edi. Avvalo, ular yangi usulda dars beradigan maktablar tarmog'ini kengaytirishga intilganlar. Shuningdek, ilm va zakovat sohibi bo'lgan umidli yoshlarni chet mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Uchinchi yo'nalish esa turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish, ziyolilarni birlashtiruvchi kuchli firqa shakllantirish hamda xalqni ongli qilishga xizmat qiluvchi gazetalarni nashr etish edi.

Jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari esa o'z zamoni uchun nihoyatda ilg'or edi. Ular avvalo Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik, johillik va diniy xurofotdan holi etish, shariatni isloh qilish hamda xalqqa zamonaviy bilimlarni yetkazishni o'z oldilariga muqaddas vazifa qilib qo'ygan edilar. Shuningdek, ular Turkiston o'lkasida muxtoriyatga ega hukumat barpo etish, Buxoro va Xiva xonliklarida esa dastlab konstitutsiyaviy monarxiya, keyinchalik esa parlamentli demokratik respublika tuzumini joriy etish orqali erkin va farovon jamiyat qurishni orzu qilganlar. Shu bilan birga, ular milliy valyutani barpo qilish va o'z mudofaa salohiyatiga ega bo'lgan milliy qo'shin tuzishni ham o'z dasturlarining tarkibiy qismi sifatida belgilab olgan edilar.

Mazkur yuksak maqsadlar va g'oyalar 1917–1920 yillar oralig'ida, qisqa muddat bo'lsa-da, “Turkiston muxtoriyati”, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari faoliyati davomida amalda sinab ko'rildi.

Tarixiy va hududiy xususiyatlariga ko'ra, jadidchilik harakati Turkiston mintaqasida uch asosiy yo'nalishga ajraladi: bular — Turkiston jadidchiligi, Buxoro jadidchiligi va Xiva jadidchiligi bo'lib, har biri o'z sharoitiga mos holda jadidchilik ruhini targ'ib etgan a lohida maktabni tashkil etgan edi.

Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg'in natijasida halok bo'ldi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida “millatchilik”, panturkizm, panislamizm tamg'alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o'qish taqiqlandi⁸¹.

Sovet davrida yaratilgan adabiyotlarda jadidchilik harakati ko'pincha “burjua-liberal harakat” sifatida talqin qilingan edi. Biroq, SSSR parchalanib, mustaqillik yillarida bu qadriyat va harakat nomi yana-da tiklandi, o'rganilishida yangi davr boshlandi. Tarixchilar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, huquqshunoslar, san'atshunoslar va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini izchil o'rganishga kirishib, dastlabki natijalarga erishdilar.

Mustaqillik yillarida Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniyning ikki jildlik asarlari, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy, Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy va So'fizoda kabi adiblarning

⁸¹ Mustafo Cho'qay o'g'li. “Istiqlol jallodlari”. Toshkent-1992. B-97.

bitta jildlik to‘plamlari, shuningdek, Fayzulla Xo‘jaev, Munavvarqori va Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari nashr qilindi.

Shuningdek, jadidlarning 20 dan ortiq taniqli namoyandalarini o‘z ichiga olgan “Unutilmas siymolar” va “Jadidchilik harakatining namoyandalari” nomli al‘bom-kitoblar ham chop etildi. Ularning boy faoliyati esa maktab darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarida o‘z o‘rnini topdi, yosh avlodga yetkazilmoqda.

XULOSA

Jadid bobolarimizning jasoratli va fidoyilik bilan olib borgan bunyodkorlik hamda islohotchilik mehnatlari natijasida, XX asr boshlarida Turkistonda haqiqiy Milliy Uyg‘onish yuz berdi. Bu davrni “jadidlar Renessansi” deb atash ham o‘rinlidir. Jadidchilik harakati siyosiy-ma‘rifiy harakatdan yuqori darajaga — taraqqiyparvar firqaga aylangan edi. Ular sho‘ro adabiyotlarida aytilganidek, “bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya” emas, balki Turkiston xalqlarining taqdirini o‘ylagan haqiqiy demokratik kuchlar edi. Jadidlar o‘z matbuotlari orqali g‘oya va maqsadlarini yoyib, xalqni har doim g‘aflatdan uyg‘otuvchi “millat ongining ochqichi” sifatida hur fikrlash va siyosiy faollikka chorlaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston Tarixi” - R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov-Toshkent-2019.
2. “Istiqlol jallodlari” - Mustafó Cho‘qay o‘g‘li. Toshkent-1992.
3. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida), Toshkent-2000.
4. M.Hasanov, F.Maxmudjonov. “Turkistonda jadidchilik harakati”. Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali – 2024.